



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466



ISSN 2181-6875

12/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



12/2024

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Bushuy T.A.	Valence, semantic structure of the word and imaginativity in the terms of nationally marked lexemes	4
Babadjanov F.K.	Boshqaruv hujjatlari matnlarining lingvistik qurilishi	9
Kasimova R.R., Saloyeva M.A.	Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va uning folklorni o'rganishdagi ahamiyati	13
Ahmadova U.Sh.	Perifraza tilning milliy ichki ifodasi sifatida	17
Khidirova M.A.	The symbolic meanings of animals: an analysis of cultural, mythological, and religious significance	22
Subxonova M.O.	Diskurs atamasi tilning ajralmas bo'g'ini sifatida	28
Жалилова А.А.	Функции имен собственных в лингвокультурологическом аспекте	31
Narzullayeva F.O., Shodiyeva M.Sh.	The usage of somatism in english and uzbek languages	35
Jumayeva M.B.	Paralingvistika va uning tilshunoslikda tutgan o'rni	40
Нарзуллаева М.О.	Сопоставительное исследование глобализмов в русском и узбекском языках	44
Yusupova Sh.T.	Linguistic manipulation and linguistic suggestion: a comparative linguistic study	50
Yuldosheva V.N.	O'zbek va nemis tillarida evfemik birliklarning qiyosiy tahlili	54
Xolmurotova G.S.	The impact of globalization on uzbek interior design terminology: linguistic and cultural differences	58
Niyazova G.G'.	Xususiy diskursda iltifotlarning sotsiolingvistik va pragmalingvistik tahlili	63
G'aniyeva O.X., Ashurova N.A.	Hozirgi amerika va o'zbek romanchiligida antroposentrik yondashuv	69
Ataboyev N.B., Astanova G.M.	Korpus lingvistikasining rivojlanish bosqichlari xususida	74
Barnoyeva Z.S.	Imom G'azzoliyning "Mukoshafat-ul qulub" asarining til korpusi va lingvistik tadqiqi	78

PERIFRAZA TILNING MILLIY ICHKI IFODASI SIFATIDA

*Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi,**Buxoro davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika**kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)**u.s.ahmadova@buxdu.uz**uaxmadova477@gmail.com**<https://orcid.org/0000-0002-6395-9812>*

Annotatsiya. Maqolada perifrazalar nutqni ta'sirli va maqsadli yo'naltirishda muhim vosita vazifasini bajarishi, nutq adresat uchun aniq va tushunarli, shuningdek, jozibador va emotsional-ekspressiv kuchga ega ekanligi xususida so'z boradi. O'zbek tilining qadimiy va boy til ekanligini ko'rsatuvchi perifrazalardan, ayniqsa, hunarmandchilik sohasi va shu sohaga aloqador birliklarni perifrazalash orqali o'zbek tilining til xususiyatlari, o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliylik, madaniylik belgilari ochib berilgan hamda tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, nutq, xalq, madaniyat, muloqot, til, leksema, sema, uslub, ijtimoiy-kasbiy, milliy-etnik, lingvokulturologiya, tilshunoslik, perifraza, tasviriy ifoda, nutqiy muloqot, sotsial, hunarmandchilik.

ПЕРИФРАЗ КАК НАЦИОНАЛЬНОЕ ВНУТРЕННЕЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЯЗЫКА

Аннотация. В статье указывается, что перифразы являются важным инструментом эффективной и целенаправленной речи, что речь ясна и понятна адресату, а также обладает притягательной и эмоционально-выразительной силой. Из перифразов, показывающих, что узбекский язык является древним и богатым языком, особенно путем перифразирования ремесленной отрасли и связанных с ней единиц, выявлены языковые особенности узбекского языка, признаки национальности и культуры, характерные для узбекского народа. выявлены и проанализированы.

Ключевые слова: общество, речь, народ, культура, общение, язык, лексема, сема, стиль, социально-профессиональный, национально-этнический, лингвокультурный, языкознание, перифраз, образное выражение, речевое общение, социальное, ремесло.

PERIPHRASE AS A NATIONAL INTERNAL EXPRESSION OF THE LANGUAGE

Abstract. The article points out that periphrases are an important tool for effective and targeted speech, that the speech is clear and understandable for the addressee, as well as has attractive and emotional-expressive power. From the periphrasis showing that the Uzbek language is an ancient and rich language, especially by periphrasing the craft sector and the units related to this sector, the linguistic features of the Uzbek language, the signs of nationality and culture characteristic of the Uzbek people have been revealed and analyzed.

Key words: society, speech, people, culture, communication, language, lexeme, sema, style, socio-professional, national-ethnic, linguo-cultural, linguistics, periphrasis, figurative expression, speech communication, social, craft.

Kirish. Kishilik jamiyati vakillari qadimdan o'zaro muloqot jarayonida muayyan narsa, buyum, hodisa, tushuncha yoki voqelikni biror nom bilan atash, ular haqida oddiy (soddagina) ma'lumot berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ularning muhim xususiyatlarini bo'rttirib tasvirlash, o'xshashlariga qiyoslash, o'ziga xos alohida belgilari asosida ifodalashga harakat qilishganki, bu, odatda, muloqot vakillariga ko'tarinki kayfiyat, nutqlariga esa ko'rk bag'ishlagan. Mutaxassislarining fikricha, shu asnodan tilning tasviriy vositalari shakllangan va takomillashib borgan. Chiroyli, jozibador, purma'no, yoqimli nutq barcha zamonlarda ham inson zotini o'ziga jalb eta olganligi, shunday nutq egalari xalq orasida voizlar, notiqarlar, suxandonlar sifatida qadrlanib kelinganligi hech birimizga sir emas. Taniqli olim Narzulla Jo'rayev ta'kidlaganidek: «Sivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turlicha yuz berib, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va turmush tarziga chuqur o'rnashgan. Sivilizatsiya, jumladan, Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupada moddiy texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq tarzida vujudga kelgan. Yurtimizda axloq benihoya serqamrov, qiyosi yo'q tushuncha sifatida ardoqlanib kelingan. Ma'nili va bejirim gapira bilish, nutqdagi ma'qul va noma'qul

so'zlarni ilg'ay olish, so'zning orqa-o'ngini, munosib o'rnini farqlay bilish, nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan» [3].

Aslida, ikki yoki ko'proq kishilarning bir-biriga axborot yetkazishi va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bo'lgan muloqot o'zbek jamiyatida odob-axloq me'yorlari, xushmuomalalik, hilmlik, hamsuhbatining ko'nglini asrash, so'zini avaylab ishlatish, suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy ahvoli, ruhiyati, muloqot o'rni, vaqti kabi o'nlab jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan. Ana shunday shirin suhbatgina tinglovchiga ham, so'zlovchiga ham estetik zavq berib, nutqiy muloqot ishtirokchilarining saviyasini, tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi. Vaholanki, fransuz yozuvchisi Antuan Ekzyuperi yozganidek: «Muloqot bu shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi» [2, 37].

Shirin suhbat, yoqimli muloqot yoki go'zal nutqning yuzaga kelishini bevosita tilning rang-barang imkoniyatlari ta'minlaydiki, shunday imkoniyatlardan biri tasviriy vositalardir. Jahon tilshunosligida ham murakkab lingvistik hodisa sanalgan tasvirlash vositalarining tabiatiga qiziqish XXI asr boshlariga kelib yuqori darajaga ko'tarildi. Dunyo tillari orasida o'zbek tili nutqiy ifoda vositalariga o'ta boy tillardan biridir. Ana shunday tasviriy vositalardan biri serqirra tabiatga ega perifrastiklardir.

Tadqiqot metodi. Dunyo tilshunosligida perifrastikologiyani ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda ularning hosil bo'lish yo'llari, mavzuiy guruhlari, semantik-struktur turlari, periferik birikmalarning tipologik xususiyatlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa har bir ijtimoiy qatlam nutqida foydalanishda alohidalik kasb etadigan lingvomadaniy birlik bo'lgan perifrastiklarni nutqni bezovchi tasviriy vosita sifatida sotsial jihatdan tadqiq etish muhimligi va uning xususiyatlarini chuqur o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizda til va xalq madaniyati yuksalishi yanada kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda o'zbek tilshunosligi muammolarini jahon tilshunosligida erishilgan yutuqlar asosida chuqur hal qilishga e'tibor ortmoqda. Ayniqsa, mamlakat xalqaro axborot hamjamiyatining intellektuallashuvida muloqot etikasini boyituvchi manba sanalmish sotsial-ijtimoiy perifrastik birliklarning til-nutq-madaniyat aloqadorligida o'rganilishiga ehtiyoj sezilmoqda. «Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi» [12]. Shu jihatdan til, shaxs va jamiyat munosabatlari muammolari yechimi sifatida sotsial perifrastik birliklar ayniqsa, hunarmandlar nutqi bilan aloqador bo'lgan sotsiopragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlari nutq etikasini boyituvchi manba sifatida milliy tilimizning leksik-semantik-funksional xususiyatlarini tadqiq qilish zaruratini belgilaydi.

Muhokama. Ma'lumki perifrasta ko'p funksiyali hodisa sanaladi. Hunarmandlar nutqi perifrastikasiyining mohiyatini til va nutq farqlanishida ochib berish, leksik-semantik, uslubiy-funksional, ijtimoiy-kasbiy, milliy-etnik, lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. O'zbek tilida hunarmandchilik sohasi perifrastiklarining kontekstual qo'llanilishi, kasbiy farqlanishi, muloqotda so'zlovchi va tinglovchi nutqining eshitimlilik darajasi, ruhiy holat bilan bog'liqligi ijtimoiy, lingvokulturologik, psixolingvistik aspektida asoslanishi orqali milliy tilimizning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ochib berish mumkin. Perifrastikning nominativ ma'lumot berish xususiyatiga egaligi, stilistik qurilma sifatida – perifrastiklanayotgan so'z, perifrastiklanayotgan komponent, perifrastiklangan uch a'zoli tarkibiy qismlari lingvistik dalillanishi tilning va ushbu hodisaning serqirra ekanligidan dalolat beradi. Hunarmandchilik sohasiga oid bo'lgan perifrastik birliklar muloqot etikasini boyituvchi manba bo'lib, mamlakat xalqaro axborot hamjamiyatining intellektuallashuvida, sotsiolektlar, professiolektlar nutqini to'ldirishda ijtimoiy rol, mavqe, vaziyat kabi nutqiy omillarni aniqlanishi muhimdir.

Perifrastiklar o'zbek tilshunosligida ham, turkiyshunoslikda ham garchand alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur hodisaning lingvistik xususiyatlari to'la ma'noda o'z yechimini topmagan. Zero, perifrastiklar badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida og'zaki nutqimizda ham, yozma nutqimizda ham nihoyatda ko'p qo'llaniladiki, bu ona tilimizning boyligini, ma'no imkoniyatlari benihoya kengligini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Perifrastiklar nutqimizni ta'sirchan, aniq, mantiqan pishiq, jozibador va betakror bo'lishi uchun xizmat qiladi. So'z ma'nolarining kengayishi va ko'chgan holda qo'llanishi tilning, ayniqsa, lug'at tarkibining boyligini oshiruvchi omillardan biridir. Odatda, nutqda ko'chma ma'noli so'zlarni qo'llash o'sha tilning lug'at zaxirasi naqadar boyligini ko'rsatuvchi, uslub ravonligini ta'minlash imkoniyatlari behad kengligini, ifoda mazmundorligini ta'minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vositalar xilma-xilligini xarakterlaydi.

Ma'lumki, so'z ma'nosining ko'chish yo'llariga metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabilar kiradi. Tasviriy ifodalar hosil bo'lishida ushbu usullarning ahamiyati katta. Masalan, *oq oltin* – paxta (metafora usulida), *o'zbek romanchiligi maktabining asoschisi* – Abdulla Qodiriy (metonimiya usulida), *charm qo'lqop ustasi* – bokschi (sinekdoxa usulida), *fazogir* – kosmonavt (vazifadoshlik usulida) kabilarda muayyan narsa-predmet va unga xos belgining nomi boshqa narsa-predmetga va undagi belgiga nom sifatida

ko'chirilgan. Shunga ko'ra, tasviriy ifodalar hosil bo'lgan. Tasviriy ifodalar ko'proq ot va sifat turkumlariga mansub bo'ladi. Bunday ifodalar ba'zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (*aql gimnastikasi* – matematika, shaxmat; *qora oltin* – neft, ko'mir, *asr mo'jizasi* – kompyuter, internet) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda tarzida (*zangori ekran, oynayi jahon* – televizor, *oq xalat sohiblari, salomatik posbonlari* – shifokorlar, *tafakkur ozuqasi, aql chirog'i* – ilm) qo'llanilishi mumkin.

Tilda shunday so'zlar borki, ular yakka qo'llanish xususiyatiga ega emas, ular birikma tarkibidagina qo'llanilib, perifrazalar hosil bo'lishi uchun asos vazifasini o'taydi. Shunday so'zlardan biri «*ahl*» so'zidir. Bu so'z bir soha, kasb yoki doira odamlari, bir joyda yashovchi kishilar hamda yig'inlarda qatnashuvchi shaxslar ma'nosini ifodalovchi so'z sifatida talqin etiladi. Masalan: *ahli ilm, ahli donish, qalam ahli, ishq ahli, ijod ahli*. Ayrim so'zlarning ko'chma ma'nosini qayd etish, albatta, ularning o'zlari tashkil etgan birikma bilan keltirishni talab etadi. Masalan, «*oltin*» kimyoviy element, sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho nodir metall, zar, tilla ma'nosida qo'llaniladigan ushbu so'z orqali yasalgan perifrazalar: *oltin bosh* – yaxshi idrok etadigan boshga nisbatan; *oltin vodiy* – noz-ne'matlarga boy bo'lgan joy; *oq oltin* – paxta; *qora oltin* – neft; *oltin odam* – qadri baland kabi. Rang semasini bildiruvchi leksik birliklardan ham perifrazalar hosil qilishda unumli foydalanish mumkin. Masalan: *oq oltin* – paxta, *oq tayson* – bokschi, *oq xalatlil fidoyilar* – shifokorlar, *qora metall* – neft, *qora xonim* – qozon, *zangori ekran* – televizor, *zangori olov* – gaz, *moviy gumbaz* – osmon, *kumush tola* – ipak, *yashil boylik* – tabiat, *oltin boshqoq* – bug'doy, *ko'k qozon* – osmon kabilar.

Perifraza – murakkab tabiatli hodisa. Garchi u atash xususiyatiga ko'ra so'z varianti (mantiqiy ma'nodoshi) yoki muayyan leksema paradigmasida turuvchi hosila hisoblansa-da, tuzilish xususiyati hamda muayyan tushuncha, voqea-hodisa, belgi, shaxs yoki narsani obrazli ifodalashiga, shuningdek, tarkibi birdan ortiq so'zdan iboratligiga ko'ra so'z ta'rifiga mos kelmaydi (perifrazalarda so'zlardagi kabi ko'pma'nolilik xususiyati ham mavjud emas).

Zero, perifraza qadim zamonlardan to hozirgi kungacha tilshunoslarni doimiy qiziqtirib kelayotgan murakkab bir tuzilma, nutqda bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro ta'sir qiladigan turli vazifalar hamda xususiyatlarga ega bo'lgan butunlik sifatida hamon aniq va yagona ilmiy asosli ta'rifga ega emas. Perifraza ko'p funksiyali hodisa sifatida matndagi so'zlarni almashtira oladi, muayyan birlikni bir vaqtning o'zida nomlaydi, ob'ektni tavsiflaydi va, ko'pincha, uni baholaydi. Demak, perifraza *nomlovchi, xarakterlovchi, tavsiflovchi*, shuningdek, *baholovchi* nominatsiya sifatida nafaqat obyekt haqida, balki nominatsiya mavzusi haqida ham ma'lumot berish xususiyatiga ega. Shu boisdan unga tugal ta'rif berish, tilning muayyan sathi doirasidagina tadqiq etish yoki hozirgacha o'rganilgan boshqa nutqiy hodisalar sirasiga kiritish, shu asosda perifrazaning konseptual o'zagini belgilash va yagona tasnifini berish mushkul.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, hozirga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarda perifrazalar bir necha sathlarda o'rganilgan. Jumladan:

1) leksikologiya tarkibida: Bir guruh olimlar perifrazaning nominativ xususiyatiga tayanib uni to'g'ridan-to'g'ri tilning atash xususiyatiga ega bo'lgan birliklari qatoriga joylashtirishadi. Masalan, Yu.Skrebnev perifrazani «yuqori emotsiyali leksika» («visokoemotsionalnaya leksika»), «tavsifli nominatsiya» («opisatel'naya nominatsiya»), «metonimik tavsiflangan nominatsiya» («nominatsiya kak metonimicheskoye opisaniye») sifatida belgilaydi [11, 96]. Fikrimizcha, uzoq yillar o'zbek maktablarining «Ona tili» darsliklari tarkibida «Tasviriy ifoda» mavzusining leksikologiya sirasida berilishi ham shu bilan bog'liq.

Yu.Rapayeva «Perifrazaning tuzilishi va tiplari» maqolasida shunday yozadi: Perifrazani nominativ birlik sifatida tavsiflash uning ko'p qirrali mohiyati doirasini toraytiradi va perifrazalarning «obrazli ifodalash» xususiyatining o'ziyoq uni leksik birliklar, ya'ni so'zdan chetga chiqaradi [8]. Darhaqiqat, perifrazalarning atash ma'nosi ularning birgina xususiyati bo'lib, perifrazani faqat shu nominativ xususiyati asosida tavsiflash mohiyatga bir tomonlama yondashishdan boshqa narsa emas.

2) frazeologiya tarkibida: Perifraza, aslida, iboraning bir ko'rinishi bo'lib tavsiflovchi ibora sifatida mavjuddir. Perifraza haqida «nutq jarayonida «boshqa ibora yoki so'zning ma'nosini tavsiflab uzatish» xususiyatiga ega alohida frazeologik birlik hisoblanadi» yoxud «ob'ekt yoki hodisaning nomini ularning muhim xususiyatlari tavsifi bilan almashtirishdan iborat bo'lgan aylanma» yoki «boshqa ifoda yoki so'zning ma'nosini tavsiflovchi, keng tarqaladigan ibora» mazmunidagi ta'riflarga tez-tez duch kelamiz [9].

Fikrimizcha, perifraza leksemadan ham, frazemadan ham farqlanuvchi, biroq ularga yondosh, alohida nutqiy hodisadir.

3) stilistika tarkibida: Tilshunoslikda perifraza «stilistik qurilma», «nutqiy stilistik moslama», «ekspressivlikni oshirish uchun ishlatiladigan og'zaki aylanish», «stilistik asbob», «obyekt yoki harakatning bitta so'zli nomini tavsifli verbal so'z bilan almashtirishdan iborat stilistik-semantik shakl» sifatida talqin etilgan bir qator tadqiqotlar mavjud [5].

Yuqoridagi ta'riflarda perifraza matn tuzilishida ekspressivlikni ta'minlovchi eng muhim birlik tarzida talqin etilgan.

Perifrazalar uslubi vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lug'at tarkibini boyitib boradi. Nutq jarayonida takrorlardan, qaytariqlardan qochish imkonini beradi, notiqni so'zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy ifodalar faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olg'a qadam qo'yishiga to'sqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish, ulardan kulish va ularga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlatiladi. Binobarin, tasviriy ifodalar predmet, voqea-hodisalarning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

Ma'lumki, xalqning milliy-etnik xususiyatlari, avvalambor, uning tilida namoyon bo'ladi. Tilshunos S.Muhamedova qayd etgani kabi «... til, avvalo, millatni millat qiluvchi vosita, u millatning ko'zgusidir. Zero, tilimizda bizning qiyofamiz, ma'naviyatimiz aks etadi, til millat vakilining ma'naviyatini namoyon qiladi» [6]. «Til ajdodlardan meros buyuk xazina, avlodlarni bog'lovchi ma'naviy ko'priks hisoblanadi. Har qanday tilda u mansub bo'lgan xalqning ma'naviyati, ruhiy olami, aql-idroki, orzu-umidlari, yuksak insoniy fazilatlarini o'z ifodasini topadi. Dunyoda yetti mingga yaqin til bor, ularning hammasini o'zlashtirish qiyin. Ammo tilning mo'jizaviy qudrati shundaki, kishi o'zi uchun mutlaqo begona tildagi so'zlashuv yoxud qo'shiqni tinglaganda, shu millat haqida ma'lum tasavvurga ega bo'ladi» [10]. Milliy-etnik xususiyat til orqali namoyon bo'lar ekan, birinchi navbatda, tilning leksik tarkibida ko'zga tashlanadi.

Kishilik jamiyati taxminan ikki million yillik murakkab tarixga ega bo'lib, jahondagi har bir elat, xalq, millat asrlar silsilasining muayyan davrlarida shakllanib, o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganki, bu bevosita o'zbek millatiga ham tegishli. Til birliklarining milliy-etnik, lingvomadaniy talqinida muhim o'rin tutadigan bu masala nafaqat ilmiy, balki milliy mentalitet, milliy madaniyat, milliy davlat, milliy suverenitet masalalari bilan bevosita aloqador ijtimoiy, siyosiy, sotsial xarakter kasb etgan masaladir. Til xalqning bebaho mulki, nodir va nozik boyligi ekanligi ma'lum. Unda xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, takomil tadriji, asrlarga tengdosh tarixi, xullas, millatning butun bo'y-bastiyu aqliy-ma'naviy olami qatrada quyosh aks etganiday o'z tajassumini topadi.

Tilning muhtasham xazinasida hunarmandchilik sohasi deb umumlashtiriladigan muhim bir qatlam borki, u xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, tegishli hududning geografik va iqlim xususiyatlari, qisqasi, butun xalqning milliy, etnik jihatlari haqida ishonchli ma'lumotlar beradi. Nutqda hunarmandchilik sohasiga oid perifrastik birliklarni milliylik omilining qay darajada ifodalanishi, madaniy-estetik darajalarga ko'ra, etno-hududiy tiplariga ko'ra tasniflab tadqiq qilish mumkin.

Dunyoda turli-tuman kasblar, bir-biridan turfa hunarlar borki, ularning har biri o'ziga xos ish qurollaridan, o'z kasbi, hunari mohiyatidan kelib chiqadigan atamayu professionalizmlardan, kasb-hunariga mohiyatan bog'liq til hamda nutq birliklaridan foydalanadi. Birgina hunarmandchilik sohasining o'zi o'z ichida sohalarga bo'linadi. Masalan, zardo'zning asosiy quroli – zar-ip, tikuvchilik – igna, ip, tikuv mashinasi, kulolchilik esa loy, shirin tuproq, rassomlarniki – bo'y, rang va hokazo.

Aytish joizki, har bir soha vakillarining, hunar egalarining, o'ziga xos sotsial qatlamlarning nutqini «tanitib turuvchi» terminlari, atamalarini bilan birga perifrazalari ham bo'ladi. Jumladan: dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, tibbiyot xodimlari, pedagoglar, matbuotchilar, diniy soha vakillari, ijodkorlar, quruvchilar, olimlar nutqi perifrazalari va boshqalar.

Xulosa. Perifrazalarning ijtimoiy kasbiy tasnifga ko'ra turlari xususida mulohaza yuritayotganda ikki jihatni farqlab olish muhim deb hisoblanadi. Birinchisi – muayyan sotsial obyekt haqida aytilgan perifrazalar hamda ikkinchisi – ijtimoiy kasb, hunar, soha vakillarining nutqida keng yoki alohida qo'llaniluvchi perifrazalar. Masalan, *turizmning bir bo'laki – hunarmandchilik sohasi* haqida aytilgan perifraza bo'lsa, *bezaklar toji – tillaqosh* zargarlik mahsulotlari kasbiy perifrazasi hisoblanadi.

Hunarmandchilik sohasida *xalqimizning o'lmas qadriyati* – kashtado'zlik, *amaliy bezak turi*, *san'at turi* – kashtachilik, *qushdan nusxa oladigan* – kashtachi, *bezak san'ati turi* – kashta; *zar ustalari* – zardo'zlar, *bezak yaratadigan soha* – zardo'zlik, *nozik did hunari* – zardo'zlik, *o't ichidan chiqqan qagnus qush* – zardo'zlik san'ati, *momomeros kasb* – zardo'zlik; *oshxona sultoni* – oshpaz, *oshxona sohibi* – oshpaz, *dasturxon sehgari* – oshpazlar, *oshpaz ijodi mahsuli* – taom, *azaliy kasb turi* – oshpazlik; *bag'ri otash mo'jiza* – tandir, *tandir ustasi* – tandirsoz, *xamir ustasi* – novvoy, ***quyosh parchasi yaratuvchilari*** – novvoylar, ***dasturxonimiz fayzi*** – non, *tongni uyg'otgan ne'mat* – non, *inson rizqi* – non, shuningdek, *dunyoni ko'rish san'ati* – miniatyura, *kichik o'lchamlar mo'jizasi* – miniatyura, *insonning jonli soyasi* – portret, *sayyohlar shoh bekati* – mehmonxona, *sirli naqshlar san'ati* – yog'och o'ymakorligi, *shohlar bayoni san'ati* – miniatyura kabilar hunarmandchilikka oid perifrazalar bo'lib, ularda milliylik, madaniylik omili aks etgan.

Hunarmandlar nutqi perifrazalari serqirralik tabiatiga ega bo'lib, so'zlovchining muayyan voqelikka qanday munosabat bildirishiga ko'ra yoki yozuvchining o'z asarida ifodalayotgan obrazlar xarakterini ochib berishda ham ijobiy, ham salbiy, ba'zan neytral ma'nolarni yuzaga chiqarishda, shuningdek, nutqda ifodalanayotgan perifraza nutq egasining (yoki asar qahramonining) madaniyatlik belgisi, estetik didi yoki tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatib turadi.

Perifrazalar jamiyat ahlining barcha ijtimoiy qatlamlari doirasida ham badiiy, publitsistik, ham ilmiy, ham so'zlashuv uslublarining badiiy-estetik, effekt beruvchi, ta'sir qiluvchi asosiy vositasiga aylangan. Perifrastik birliklar ko'magida nutq odobi, muomala madaniyati yuksaladi. Ushbu birlik nutqning rang-barangligi, ta'sirchanligi, eshitimlilikini, badiiyligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek tilining adabiy uslubi haqida // *O'zbek tili va adabiyoti*. 1992, № 5-6. – B. 38-36.
2. Antuana de Sent-Ekzyuperi. *Planeta lyudey* (Nora Gal tarjimasi). 1963. – B. 37.
3. Jo'rayev N. *Agar ogohsen...* – Toshkent: Sharq, 1998. – 253 b.
4. Karimov S. *Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari*. Samarqand: SamDU, 1994. – 72 b.
5. Kvyatkovskiy A.P. *Poeticheskii slovar*. – Moskva: Sov. Ensiklopediya, 1966. – 376 s.
6. Muhammedova S. Til millat ko'zgusidir // <http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/43174-til-millat-kuzgusidir>.
7. Qo'ng'urov R. *O'zbek tilining tasviriy vositalari*. – Toshkent: Fan, 1977. – 172 b.
8. Rapayeva Yu. V. *Struktura perifrazы i yee tipы*. – Ufa: Leto, 2013. – S. 90-91.
9. Rozental D.E., Telenkova M.A. *Slovar-spravochnik lingvisticheskix terminov* (Posobie dlya uchitelya). – Moskva: Prosveuyenie, 1985. – 399 s.
10. Saidova Q. Til – millat qalbi // *Guliston*, 2013. – 15-b (Elektron resurs). <http://n.ziyouz.com/books/jurnallar/guliston/Guliston%20-%202013-5.pdf>
11. Skrebnev Yu.M. *Ocherk teorii stilistiki* (Uchebnoe posobie dlya studentov i aspirantov filologicheskix spetsialnostey). – Gorkiy, 1975. – 175 s. – S. 96.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730>
13. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov X. *O'zbek tili stilistikasi*. Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 248 b.
14. Ahmadova U. Sh. *Perifraza turlari va ularning matndagi o'rni* // *Til, ta'lim, tarjima xalqaro jurnali*. – Toshkent. – 2020. – T. 4. – S. 81-87.